

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING OMMALASHISHIGA MATBUOTNING TA`SIRI

Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkistonda jadid ma`rifatparvarlarining milliy matbuotga asos solishi va jadidchilikning butun davlat bo`ylab keng yoyilishida milliy matbuot qanday ta`sir qilganligi, vaqtli nashrlar qanday mavzularni ilgari surganligi va ularning taqdiri qanday yakun topganligini yoritishga harakat qilingan.*

Kalit so`zlar: *Jadidlar, milliy matbuot, "Tarjimon" Ismoil Gaspirali "Taraqqiy", Ismoil Obidov, "Sadoi Turkiston", "Sho`roi Islom", A.Battol, "Osiyo", "Farg`ona sahifasi"*

ВЛИЯНИЕ ПРЕССЫ НА РАСПРОСТРАНЕНИЕ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация: *В данной статье предпринята попытка объяснить, как национальная пресса повлияла на создание национальной печати джадидскими просветителями в Туркестане и на широкое распространение джадидизма по всей стране, какие темы публиковали периодические издания и чем закончилась их судьба.*

Ключевые слова: *Джадидлар, национальная пресса, «Переводчик» Исмаил Гаспирали «Таракки», Исмаил Обидов, «Садои Туркестан», «Шорой Ислам», А. Баттол, «Асиё», «Ферганская страница».*

INFLUENCE OF THE PRESS ON THE PROPAGATION OF THE JADIDIST MOVEMENT IN TURKESTAN

Annotation: *In this article, an attempt has been made to explain how the national press influenced the founding of the national press by modernist enlighteners in Turkestan and the wide spread of modernism throughout the country, what topics were promoted by periodicals, and how their fate ended.*

Key words: *Jadidlar, national press, "Translator" Ismail Gaspirali "Taraqqi", Ismail Obidov, "Sadoi Turkistan", "Sho`roi Islam", A. Battol, "Asiyo", "Fergana page"*



Kirish

Tarixning turli sinovlariga dosh berib, omon qolgan barcha yozma manbalar: tarixiy bitiklardan tortib kitoblargacha barchasi tarix fanining beqiyos boyligidir. Gazeta va jurnallar ham shular jumlasidandir. Turkiston tarixini o`rganishda otabobolarimizning turmush tarzi, madaniyati, hayotiy tajribalari, diniy qarashlari haqida muhim manba bo`lgan qo`lyozmalar qanchalik qimmatli bo`lsa, o`sha davrda yaratilgan vaqtlilik nashrlarni o`rganish ham shunchalik muhimdir.

Mamlakatimiz mustaqilligini qo`lga kiritganidan so`ng tariximizni haqqoniy va to`laqonli o`rganish imkoni paydo bo`ldi. Shu sababli, Rossiya imperiyasi va uning Markaziy Osiyodagi istelochilik siyosati, imperiyaga qarshi kurash, jadidchilik harakati, qatag`on siyosati, bosmachilik harakati haqida yetarlicha ma`lumot olish imkoniyati yaratilib, keng qamrovli ishlar amalga oshirildi va albatta, bularni o`rganishda milliy nashrlar asos bo`lib hizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Ma`lumki, 19-asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo davlatlari Rossiya imperiyasi hukmronligi ostiga olindi. O`sha vaqtlarda Turkistondagi siyosiy vaziyat ruslarga qarshi turish uchun markazlashgan davlatning yo`qligi, mavjud xonliklarning o`zaro nizolari, harbiy jihatdan orqada ekanligi, ular orasidagi birlikning yo`qligi ularning mustamlakaga aylanishi uchun sabab bo`ldi. Imperiya mustamlakachiligi davrida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, diniy-ma`rifiy hayotida olib borilgan o`zgarishlar jarayonida, imperiyaning olib borayotgan siyosati va XX asrda Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining islohotchilik g`oyalarini ommalashtirishida, ularning Turkistonda amalga oshirgan islohotchilik siyosatining keng yoyilishida ular asos solgan gazetalar va jurnallar muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

Turkistonda ta`lim tizimini reformatsiya qilish, yoshlarga milliy ruhda o`qitish, milliy adabiyotni yuzaga kelishi, teatr sohasida islohotlarni amalga oshirish jadidlar uchun qanchalik muhim bo`lsa, milliy matbuotni tashkil etish ham dolzarb vazifa edi. Chunki jadidchilik g`oyalarining butun mamlakat bo`ylab tarqalishida gazeta va jurnallarning ta`siri katta bo`lgan. Shu sababli ham jadidlar milliy matbuotni yaratish uchun harakat qildilar. Vaqtlilik matbuot odamlarni ijtimoiy hayotga faol aralashtirish va dunyodan xabardor qilish yo`lida muhim vosita bo`lib xizmat qilishini jadidlar juda yaxshi bilar edilar.

Bilamizki, jadidchilik asoschisi - tatar ma`rifatparvari Ismoil Gaspirali. Uning "Tarjimon" gazetasi jadidchilikni ommalashishiga juda kata ta`sir ko`rsatgan. Hatto, Turkiston jadidlari ham "Tarjimon" bilan yaqindan tanish bo`lishgan va uning doimiy mutoalachisi bo`lishgan. Milliy matbuotni yaratishda ham aynan shu gazetadan




ilhomlanishgan. Natijada 1905-yilda kelib chiqishi tatar millatiga mansub boʻlgan Ismoil Obidov muharrirligidagi birinchi milliy gazetasi – “Taraqqiy” ga asos solindi. Gazetada mustamlakachilik va mutaassiblik qattiq qoralanib, musulmonlarni uygʻonishga, millatni ilm olishga daʼvat etuvchi maqolalar eʼlon qilingan. Shundan soʻng ketma-ket bir qancha gazeta va jurnallar yaratildi. 1905-1906 yillarda Toshkentda “Xurshid” va “Tujur” nomli gazetalar ham nashr etildi. Bu dastlabki gazetalarining sahifalarida milliy burjuaziyaning siyosiy platformasi, uning chor hukumatiga, liberal burjuaziyaga, bolshevizmga nisbatan munosabati bayon qilingan.

Shuni eʼtirof etish kerakki, 1905— 1906 yillar mobaynida jadidlar orasidan taraqqiyparvar kishilar ham yetishib chiqa boshladi. Ular jadid gazetalarida, ayniqsa «Taraqqiy» gazetasida demokratik gʻoyalarni ilgari surdilar. «Taraqqiy» gazetasi sahifalarida chor hukumatiga va uning millatchilikdan iborat siyosatini qoralaydigan, boylarning fuqaro va ishchilarni talashi va ezishini fosh qiladigan maqolalar bosilib chiqdi. Chunonchi gazetaning 1906 yil iyulida chiqqan 5-sonida fuqaro va ishchilarning ogʻir ahvolini tasvirlaydigan masala berilgan. Gazeta sahifasida bunday ruhdagi maqolalarning bosilishi chor amaldorlarini ham, ruhoniylar va boylarni ham tashvishga solmay qoʻymas edi, albatta. Shu tufayli «Taraqqiy» gazetasi 20 son chiqishi bilan hukumat tomonidan musodara etilib, redaktori qamoqqa olinadi.[1]

1907-yilda “Shuhrat” (Abdulla Avloniy), 1908-yilda “Osiyo” (Ahmadjon Bektemirov), 1914-yilda “Sadoi Turkiston” (Ubaydulla Asadullaxoʻjayev), 1917-yil martdan “Fargʻona sahifasi”(Husayn Makayev), 1917-yil may oyidan chiqa boshlagan “Shoʻroi Islom” (A.Battol) nomli gazetalarining barchasida jadidchilik gʻoyalari keng targʻib etilgan. Masalan, 1914-yil aprel oyidan chiqa boshlagan “Sadoi Turkiston” gazetasi sahifalarida maktab va madrasalarni isloh qilishga, yangi usul maktablarini kengaytirishga, yoshlarni ilm olishga chorlovchi maqolalar eʼlon qilingan; Misr, Hindiston, Arabiston, Turkiya va boshqa yurtlardagi musulmonlar ahvolidan xabar berib turgan; Millatdan himmat ahlari va ziyolilarni koʻpaytirish yoʻlida koʻp harakat qilgan boʻlsa, “Shoʻroi Islom” gazetasida esa Turkiston musulmonlarini siyosiy va ijtimoiy jihatdan tarbiya qilish, tuproq va suv masalalarini turkistonliklarga foydali ravishda hal etish, maktab va madrasalarning isloh yoʻllarini koʻrsatish [2] kabi masalalar joy olgan.

Jadid gazeta va jurnallari maʼlum vaqtdan soʻng oʻz faoliyatini yakunlagan. Nashrlarning oʻz faoliyatini yakunlashiga bir qancha omillar sabab boʻlgan. Masalan, Behbudiyning “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnallarining nashr etilishi toʻxtashiga moliyaviy qiyinchiliklar sabab boʻlgan boʻlsa, Ismoil Obidov





muharrirligidagi “Taraqqiy” gazetasining to`xtashiga gazetaning o`tkir maqolalari, tanqidlari sabab bo`lib, hukumat tomonidan musodara etilgan va chiqishi ta`qiqlab qo`yilgan. [3]

Xulosa

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Turkistonda milliy matbaachilik faoliyatining yuzaga kelishi va rivojlanishida jadidlarning xizmatlari katta. Jadidlar muharrirligida nashr etilgan gazeta va jurnallarda Turkiston ahlini jaholatdan ozod etish, maktab va madrasalarni isloh etish, aholini ma`rifatli qilish, xalq orasida ziyolilarni ko`paytirish, xurofot va aqidaparastlikka qarshi kurashish, mustamlakachilikni qoralab, Turkistonni ozodlikka eltish kabi g`oyalar ilgari surilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI:

[1] Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). Toshkent. 2000

[2] Ziyo Said. O`zbek vaqqli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). Toshkent – 1979.

[3] T.Ernazarov. “Turkistonda vaqqli matbuot”; O`zbekiston SSR davlat nashryoti, Toshkent. 1959-yil

